

Xo‘qand fojiasi

Nicha kurnlardan beri Xo‘qandda bo‘lg‘on qonli voqeal va avom fojialarini yolg‘iz og‘izlardan eshitib, ammo bo‘lar yerdan shoyon etmoq xabar olurg‘a muvaffaq bo‘lolmag‘animizdan bu to‘g‘rida g‘azetamizda hanuz bir narsa yozmay turar edik. So‘nggi kurnlarda g‘azeta va xususiy maktublardan, ushondoq ba’zi ishonchli kishilardan Xo‘qand voqeasig‘a har xil ma’lumot oldiqkim, oning xulosasi shudir:

Muxtoriyatli Turkiston hukumatining taqriban 2000 musallah¹ askari bir nicha rus afitserining rahbarligila Xo‘qand qal‘asig‘a hujum qilib, bolshivuklar bilan 24 soat urushg‘ondan so‘ng keyin qaytg‘anlar. Bu orada bolshivuklar tarafindan otilg‘on pulamyat va katta to‘plar o‘qlarindan eski shaharda hiyla imoratlar buzulg‘on, ham o‘t olib, ko‘b baqqollar, chorsu, rasta va bozorlar yonib kul bo‘lg‘an.

Bu fursatdan istefoda qilib, o‘shal kishilar eski va yangi shaharni talay boshlag‘anlar. Hatto ba’zi do‘kon va binolarg‘a o‘zлari olov qo‘yub yuborg‘anlar. Bu yong‘inni ko‘rgan xalq, o‘z jonlarini qutqarmoq uchun mol va mulklariga qaramasdan, bog‘ va sahro tarafg‘a qocha boshlag‘anlar. Bu fursatni g‘animat bilib yomon kishilar har yerdan ko‘b-ko‘b mollarni yuklab, toshib ketganlar.

Xullasi: talanmag‘on kishi oz qolq‘an, hiyla odamlar hovlisiz yersiz yolg‘iz bir qat kiyimlari bilan qolq‘onlar, talov va o‘ldurushda armanlardan hiylasi ruslarga yordam bergenlar.

Xabarlarg‘a ko‘ra, musulmon va bolshivuklar orasindagi bu urush 11 kun davom etganidan so‘ng Turkiston Muxtoriyatining askarlari shahardan chiqarg‘a majbur bo‘lg‘onlar. Ikki yoqdan ham talofat ko‘b bo‘lg‘on. Ammo qo‘lida yorog‘isi bo‘limg‘on musulmonlarning ko‘broq talofat ko‘rmog‘i o‘z o‘zidan ma’lumdir.

Yo‘ldoshimiz “Ulug‘ Turkiston”ning yozdig‘ig‘a ko‘ra: shahar aholisi nihoyatda og‘ir ahvolda qolq‘och, oxiri sulh taklif qilib, bolshivuklar bilan 7 moddali sulh yoqlag‘onlar. Bu moddaga ko‘ra, muvaqqat Turkiston hukumati a’zolari bilan urushg‘a qo‘shilg‘on kishilarning barchasi sho‘rolar hukumatiga tutulib berilsa kerak ekan.

Hozirg‘acha haqli va haqsiz ko‘b kishilar qo‘lg‘a oling‘on. Bularning orasida Shoahmeduf, Chanishef, Hofiz Nurmuhammeduf ham Ibaydulla G‘ozin afandilar bor ekan. Turkistonliklardan ham 10 – 15 kishi bor ekan.

“Hurriyat” gazetasi. 1918 yil 8 mart.

¹ Musallah – qurolli.